



VELOSIPEDCHILAR BILAN BOG'LIQ YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI

Mo'minov Izzatillox Tulqinjon o'g'li

4 bosqich "Yo'l harakatini tashkil etish" yo'nalishi talabasi,

Ilmiy rahbar: X. Baynazarov

Andijon mashinasozlik instituti

Annotatsiya. Ushbu ishdada velosipedchilar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalari statistikasi, ularning tahlili va oldini olish choralari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Velosiped, yo'l harakati qoidalar, xavfsizlik choralari, yo'l transport hodisa.

KIRISH. Zamonaviy shaharlarda transport tizimining samaradorligini oshirish va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. Bunda velosipedchilar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalari jiddiy e'tibor talab qiladigan sohalardan biri hisoblanadi. Velosiped transportining ekologik tozaligi, iqtisodiy samaradorligi va sog'liq uchun foydaliligi sababli, bu transport vositasi dunyo bo'ylab keng qo'llanilmoqda. Ammo, velosiped infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmagani va yo'l harakati qoidalariga amal qilmaslik kabi muammolar ushbu transport vositasi bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari sonining ortishiga sabab bo'lmoqda.

ASOSIY QISM. Oxirgi yillarda mamlakatimizda yo'l-transport hodisalarining oldini olish borasida ko'plab chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Ammo shunga qaramay, bu borada ijobiy o'zgarishlar ko'p, deb bo'lmaydi. Achinarlisi, ayrim haydovchilar yo'l harakati qoidalarini buzishda davom etishmoqda.


Bunday sharoitda ba'zi mutaxassis va ekspertlar jazoni yanada kuchaytirishni taklif qilayotir. Biroq bu bilan asosiy maqsadga erishish mushkul. Demoqchimizki, barcha yo'l harakati qatnashchilarida yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirmasdan turib, yo'l-transport hodisalarining oldini olib bo'lmaydi.

Mavjud vaziyat tahlili ham shunga ishora bermoqda. O‘zbekiston IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yili davomida respublika hududida 9364 ta YTH qayd etilgan. Shundan ko‘p miqdordagi foizi subyektiv sabablarga ko‘ra sodir etilgan, ya’ni haydovchilar yo‘l harakati qoidalariga e’tibor bermasligi oqibatida kelib chiqqan.

Agar haydovchilar yo‘l harakati qoidalariga rioya qilganda yuqoridagi barcha YTH sodir bo‘lmasligi mumkin edi. Achinarlisi, 2024-yili davomida O‘zbekistonda yo‘l-transport hodisalari natijasida 2023 kishi halok bo‘lgan, 8 ming 901 nafari turli tan jarohatlari olgan.


Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi taqdim etgan ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilning besh oyida sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisalarining 53,7 foizi piyoda va velosipedchilar bilan bog‘liq holatlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

2024-yilning birinchi yarmida (yanvar—iyun oylari) 9 839 ta yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lgan, buning oqibatida 9 209 nafar fuqaro jarohatlangan va 2 282 nafar inson halok bo‘lgan. Solishtirish uchun, 2020-yilning birinchi yarmida jami 2388 ta yo‘l-transport hodisasi sodir etilgan. Shundan 383 tasi bolalar, 1154 tasi piyodalar va 101 tasi velosiped ishtirokida qayd etilgan. Yuqoridagi raqamlar shuni ko‘rsatmoqdaki, joriy yilning birinchi yarmida sodir bo‘lgan YTHlar soni, 2020-yilga qaraganda deyarli 4 barobarga oshgan(1-rasm).




1-rasm. YTHlarning (2020-2024) yillar kesimida solishtirish.

O'tgan yillarda piyodalar o'tish joyi tashkil etilmaganligi 6 ta (3.4%), yo'lni ikkiga ajratuvchi to'siqlar o'rnatilmaganligi 2 ta (1.1%), piyodalar xarakatini cheklovchi to'siqlar 4 ta (2.3%), yo'llarning yoritilmaganligi 3 ta (1.7%), velloyo'laklar tashkil etilmaganligi 6 ta (3.4%) tashkil etadi (2-rasm).



2-rasm. Kelib chiqish sabablari bo'yicha YTH soni




3-rasm. Velosiped bilan sodir etilgan jami yo'l transport xodisalari (2019-2023 yillar)

Yuqoridagi raqamlar yo'l harakati qatnashchilarining ko'pchiligi yo'l harakati qoidalariga rioya qilmasligini yana bir bor tasdiqlaydi. Natijada baxtsiz hodisalar soni ortib bormoqda.

Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati statistik ma’lumotlariga ko‘ra, YTH turlari bo‘yicha sabablar etib piyodalarni urib yuborish, avtomashinalar to‘qnashuvi va boshqalar keltirilgan.

Birgina Toshkent shahar IIB ma’lumotlarida aytilishicha, joriy yilning o‘tgan yetti oyida poytaxtda 675 ta yo‘l-transport hodisasi qayd etilgan. Hodisa oqibatida 71 kishi halok bo‘lgan, 787 kishi turli tan jarohatlari olgan. Baxtsiz hodisalarning eng keng tarqalgan sababi tezlikni oshirish bo‘lgan — 199 ta holat. Haydovchilar tomonidan 90 ta holatda taqiqlovchi svetofor ishorasiga e’tibor bermaslik, mast holatda haydovchilar ishtirokida 8 ta YTH sodir etilgan (4-rasm).



4-rasm. Toshkent shahrida sodir etilgan YTH lar.

Aslida, velosiped haydovchilar uydan chiqishlari bilanoq yo‘l harakati qoidalariga rioya qilishlari, jumladan, xavfsizlik shlemlari va nur qaytaruvchi jihozlardan foydalanish odatiy holga aylanishi kerak.

2022 yilning yetti oyi davomida Farg‘ona viloyatida velosipedchi bilan to‘qnashuv bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalari (keyingi o‘rinlarda YTHlar) sonining ko‘payishi qayd etildi. Shunday qilib, 80 ta baxtsiz hodisa qayd etilgan



bo'lib, ularda 7 nafar velosipedchi halok bo'lgan, 76 nafar velosipedchi turli darajadagi og'irlikdagi jarohatlar olgan, ulardan 25 nafari bolalar.

Velosipedchilar ishtirokidagi YTHlar murakkab muammo bo'lib, ularni oldini olish uchun yuqorida keltirilgan barcha omillarni hisobga olish kerak. Yo'l infratuzilmasini yaxshilash, haydovchilar va velosipedchilarni o'qitish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va qo'shimcha xavfsizlik choralari ko'rish orqali ushbu hodisalarni kamaytirish mumkin.

2021-yilning shu davrida 68 ta YTH sodir bo'lib, ularda 4 nafar velosipedchi halok bo'lgan, 64 nafar velosipedchi turli darajadagi og'irlikdagi jarohatlar olgan, shulardan 23 nafari bolalar.

Velosipedchilar ishtirokidagi baxtsiz hodisalar, asosan, transport vositalari va piyodalar tirbandligi bo'lgan aholi punktlari chegaralarida qayd etiladi. Bundan tashqari, halokatli baxtsiz hodisalarning aksariyati (taxminan 77,5%) ertalab (soat 6 dan 12 gacha) va kunduzi (soat 12 dan 18 gacha) sodir bo'ladi.

Velosiped bilan bog'liq YTH larini ortib borayotganligi, yo'l harakati ishtirokchilarining velosipedda harakatlanish qoidalariga yetarli darajada e'tibor bermasligini anglatadi. Qolaversa, atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi kurashishning eng yaxshi yo'li ko'chalarda kamroq avtomobil bo'lishi, bunda velosipedlar muhim o'rin tutmoqda. Velosipedlar eng tejamkor, sokin va manevrli transport turi hisoblanib, yo'llar va to'xtash joylarida kamroq joyni egallashi bilan ahamiyatlidir. Qonunchiligimizda, velosiped bilan harakatlanishda bir qator qoidalar belgilangan bo'lib, ushbu transport turini haydashdan oldin tegishli yo'l-yo'riqlarni bilish maqsadga muvofiqdir.

Quyida velosiped bilan harakatlanish yuzasidan milliy qonunchiligimiz hamda ushbu sohada ilg'or xorij tajribasini tahlil qilamiz.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-martdagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan Yo'l harakati qoidalarida velosiped harakatlanishiga doir qo'shimcha talablar belgilangan bo'lib, unga ko'ra, yo'lda velosipedni boshqarish 14 yoshdan kichik bo'lmagan shaxslarga ruxsat etiladi. Shuningdek, velosipedlar yo'lining chetki o'ng bo'lagida imkoni boricha o'ng tomonidan bir qator bo'lib harakatlanishiga yo'l

qo'yiladi. Agar piyodalarga xalaqit bermasa, yo'l yoqasidan harakatlanishi mumkinligi belgilangan. Velosiped tovushli ishora moslamasi bilan jihozlangan va tormoz tizimi soz bo'lishi zarur. Qorong'i vaqtda va yetarlicha ko'rinmaslik sharoitida harakatlanish uchun velosipedning old tomoniga oq rangli nur qaytargich va chiroq, orqa tomoniga qizil rangli nur qaytargich va chiroq, yon tomonlariga esa, zarg'aldoq yoki qizil rangli nur qaytargich o'rnatilishi kerakligi belgilangan(5-rasm).



5-rasm. Velosipedlarga qo'yiladigan ogohlantiruvchi ishoralari.

Qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishga asosan, velosiped yo'lkasi bo'lmagan holda yo'lning qatnov qismida harakatlanayotgan velosipedchilar sutkaning qorong'i vaqtda va yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitda nur qaytargichli kamzulda yoki nur qaytaruvchi elementli parchalari bo'lgan ustki kiyimda bo'lishi shart. Ushbu nur qaytaruvchi elementli parchalar boshqa haydovchilar tomonidan ko'rinishi ta'minlanishi kerak.

XULOSA. Velosipedchilar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarini tahlil qilish natijalari bir qancha muhim jihatlarni aniqladi. Birinchidan, bunday hodisalarning asosiy sabablari orasida yo'l infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmagani, yo'l harakati qoidalariga rioya qilinmasligi va velosipedchilar uchun xavfsizlik choralari yetishmasligi mavjud. Ushbu muammolar nafaqat transport tizimining samaradorligiga, balki jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. **"Yo'l transport hodisalarini tizimli tahlili"** - Q.H. Azizov, Toshkent, 2022.
2. **"O'zbekistonda yo'l-transport hodisalari: sabablari va oqibatlari"** - Jamoat xavfsizligi departamenti, 2023.
3. **"Yo'l harakati qoidalari va ularning bajarilishi"** - O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. . **2020-yil 10-avgustdagi O'zR IIBning 345-sonli buyrug'i** bilan tasdiqlangan va 2021-yil 1-yanvardan kuchga kirgan.
4. Saidov M.X., Qahhorov A.A., Umarov B.SH. «Avtomobil tayyorgarligi». Darslik. –T., 2016. –544 b.
5. *Кулмухамедов Ж.Р. ва бошқалар. Йўл ҳаракати қоидалари ва хавфсизлиги.* – Т., 2008. – 168 б.
6. A.A.Qahhorov, M.X.Saidov «Yo'llarda harakatlanishni tartibga soluvchi vositalar». O'quv qo'llanma.–T., 2014. –124 b.
7. **"Yo'l infratuzilmasini rivojlantirish va xavfsizlikni oshirish"** - O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. <https://gov.uz/oz/mintrans>